

VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Eshonqulov Azamat Abdiraximovich

TIFT Universiteti “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi mudiri

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Avezova Dilrabo Faxritdinovna

O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi,

magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada aksiyadorlik tijorat banklarida asosiy vositalar hisobini yuritish jarayoni va uning samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Asosiy vositalar banklarning moliyaviy ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan muhim aktivlardan biri hisoblanadi. Maqolada xalqaro tajriba va mahalliy amaliyotlarni tahlil qilish orqali asosiy vositalar hisobi samaradorligini oshirish va banklarning moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan takliflar beriladi.

Kalit so’zlar. Aksiyadorlik tijorat banklari, asosiy vositalar, moliyaviy hisobot, hisob tizimi, aktivlar boshqaruvi, hisobni takomillashtirish, moliyaviy ko‘rsatkichlar, samaradorlik, moliyaviy nazorat.

KIRISH

Aksiyadorlik tijorat banklarida asosiy vositalar bankning eng muhim moliyaviy resurslari sifatida e’tirof etiladi. Ushbu vositalar nafaqat bankning kundalik faoliyatini ta’minlashda, balki uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Asosiy vositalarning to‘g’ri hisobga olinishi va boshqarilishi moliyaviy hisobotlarning ishonchlilagini ta’minlash, banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) mos keladigan yondashuvlarni joriy qilish orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda aksiyadorlik tijorat banklarida asosiy vositalar hisobini yuritish tizimining takomillashtirilishi zarurati yanada dolzarb bo‘lib bormoqda.

Xalqaro standartlarga muvofiq hisob yuritish nafaqat milliy bozorda, balki xalqaro moliya bozorida raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi. Shu sababli, asosiy vositalarni hisobga olish tizimini modernizatsiya qilish, uning zamonaviy talablar va standartlarga mosligini ta'minlash, bankning umumiyligi faoliyat samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Aksiyadorlik tijorat banklarida asosiy vositalar hisobini takomillashtirish nafaqat buxgalteriya hisobining texnik jihatlarini yaxshilash, balki banklarning umumiyligi salohiyatini mustahkamlashga ham katta hissa qo'shadi. Ushbu jarayon orqali bankning moliyaviy ko'rsatkichlarini haqqoniy va to'liq aks ettirishga erishiladi, bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Bundan tashqari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida asosiy vositalar hisobining yuritilishi xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bankning moliyaviy shaffofligi va samaradorligi oshgani sayin, uning moliyaviy holati mustahkamlanib, kreditlash qobiliyati va ishonchliligi ortadi. Shu bilan birga, asosiy vositalarning doimiy baholanishi va ularni aniq hisobga olish vositalarning eskirishini va qimmatini aniqroq ko'rsatish imkonini beradi.

Shunday qilib, asosiy vositalar hisobini takomillashtirish banklarning nafaqat ichki boshqaruv samaradorligini, balki xalqaro moliya bozorlarida ham ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Asosiy vositalarni hisobga olish tizimini takomillashtirish aksiyadorlik tijorat banklarida moliyaviy ko'rsatkichlarni haqqoniy aks ettirish va xalqaro standartlarga moslashish uchun muhimdir. Bu jarayonni amalga oshirishda bir qator metodologik yondashuvlar mavjud bo'lib, ular hisob tizimining aniqligi, shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Quyida asosiy vositalarni hisobga olish tizimini takomillashtirish bo'yicha ba'zi metodologik yondashuvlar keltirilgan:

- Amaldagi milliy buxgalteriya standartlarini Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari (MHXS) bilan moslashtirish. Ayniqsa, asosiy vositalar

hisobini MHXS 16 ("Ijara shartlari") va MHXS 36 ("Aktivlar qiymatini kamaytirish") kabi standartlarga muvofiq yuritish zarur.

- Asosiy vositalarni baholashda MHXS asosida qayta baholash yondashuvini qo'llash. Bu aktivlarning eskirishini va real qiymat o'zgarishlarini aniqroq aks ettiradi.
- Xalqaro standartlar asosida hisob yuritish orqali xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyalashish va xorijiy investorlar uchun shaffof hisobotlarni taqdim etish.
- Amaldagi tizimda bir xil amortizatsiya usullaridan foydalanish o'rniga, banklarga turli amortizatsiya usullarini tanlash imkoniyatini yaratish. Masalan, tezkor kamaytiriluvchi balans usuli, chiziqli usul yoki bir marotabalik amortizatsiya kabi usullarni qo'llash.
- Har bir asosiy vositaning foydalanish muddatiga qarab amortizatsiya usulini tanlash. Bu bankning moliyaviy ko'rsatkichlarini aniqroq aks ettirishga yordam beradi.
- Asosiy vositalarni boshqarish va hisobga olish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun ERP tizimlarini joriy etish. Bu inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi va real vaqt rejimida aktivlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi.
- Asosiy vositalarning texnik holati va qiymat o'zgarishlarini doimiy monitoring qilish va ma'lumotlar bazasini avtomatik ravishda yangilash orqali aktivlarning real bahosini ta'minlash.
- Asosiy vositalarning bozor qiymatini muntazam ravishda qayta baholash tizimini joriy etish. Bu aktivlarning qiymatini aniqroq aks ettirish va moliyaviy hisobotlarning ishonchlilagini oshirishga yordam beradi.
- Aktivlarning qiymat pasayishini o'z vaqtida aniqlash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish. Bu qiymat pasayishini kechiktirmasdan hisobga olish bankning moliyaviy holatiga nisbatan haqqoniyligini tasavvur hosil qiladi.
- Asosiy vositalarni boshqarish va ularning hisobini yuritish bo'yicha ichki audit tizimlarini kuchaytirish orqali moliyaviy hisob-kitoblarning haqqoniyligini ta'minlash.

- Asosiy vositalarning hisobini xalqaro miqyosda tan olingan auditorlar tomonidan tekshirish orqali bankning moliyaviy shaffofligini oshirish.
- Asosiy vositalarni turli segmentlarga (bino, transport vositalari, texnologik uskunalar, IT infratuzilmasi va boshqalar) ajratib hisob yuritish. Bu vositalarning xarakteristikalari, foydalanish muddatlari va eskirish darajasini aniqroq boshqarishga yordam beradi.
- Har bir turdag'i asosiy vositalar uchun maxsus hisob usullarini ishlab chiqish, chunki ularning xizmat muddati va texnik eskirishi bir xil bo'lmaydi.
- Aktivlarning xizmat muddatini uzaytirish uchun ularni muntazam texnik xizmat ko'rsatish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish. Bu aktivlarning tez eskirishini oldini oladi va ularning qiymatini uzoq muddat davomida saqlab qolishga yordam beradi.
- Texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini raqamli platformalar orqali boshqarish, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini aniq hisoblash va aktivlarning holatini muntazam kuzatib borish.
- Asosiy vositalar hisobini yuritish bo'yicha zamonaviy xalqaro standartlar va texnologiyalardan foydalanish uchun bank xodimlarining malakasini oshirish. Bu xalqaro standartlarga mos ravishda ishslashni ta'minlaydi.
- Moliyaviy boshqaruva va aktivlar hisobini samarali tashkil qilish uchun moliyaviy menejerlar uchun maxsus trening va o'quv kurslarini tashkil qilish.
- Ijara va lizing shartlari bo'yicha asosiy vositalarni hisobotda to'g'ri aks ettirish uchun MHXS 16 standarti talablariga muvofiq hisob yuritish. Bu operatsiyalarni haqqoniy aks ettirish va vositalarning qiymatiga bo'lgan ta'sirni to'g'ri hisoblash imkonini beradi.

Umuman olganda, asosiy vositalar hisobini takomillashtirish bo'yicha ushbu metodologik yondashuvlar bankning moliyaviy hisobotlarini yanada ishonchli va shaffof qilish, moliyaviy ko'rsatkichlarini to'g'ri aks ettirish hamda xalqaro moliyaviy bozorlar bilan raqobatbardosh bo'lishiga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Aksiyadorlik tijorat banklarida asosiy vositalarning mavjud hisob tizimi va uning kamchiliklari bu, asosiy vositalarning hisobini

yuritish bugungi kunda belgilangan milliy standartlar va me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu tizim aksiyadorlik tijorat banklarining asosiy vositalarini (bino, uskunalar, texnologik asbob-uskunalar va boshqalar) hisobga olish, amortizatsiyani aniqlash va ularga tegishli moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni nazarda tutadi. Bu hisob tizimi quyidagi rasmida asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

**Asosiy vositalarning
tan olinishi va
dastlabki bahosi**

- Asosiy vositalar dastlab ular xarid qilingan yoki sotib olingan qiymat bo'yicha hisobga olinadi. Bu qiymat ichiga sotib olish qiymati, yetkazib berish xarajatlari va boshqa kapital xarajatlar kiradi.


**Amortizatsiya
hisoblash**

- Aksiyadorlik tijorat banklarida asosiy vositalarning eskirishi amortizatsiya yordamida hisobga olinadi. Amortizatsiya bankning moliyaviy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki u bankning sof foydasini kamaytiradi.

**Asosiy vositalarni
baholash va ularning
qiymatini pasaytirish**

- Banklar har yili asosiy vositalarning bozor qiymatini qayta baholab turishlari kerak. Agar vositaning qiymati pasaysa, bu pasayish moliyaviy hisob-kitoblarda aks ettiriladi.

Hisob tizimining asosiy kamchiliklari esa quidagi rasmida keltirilgan.



Yuqoridagi rasimdan kelib chiqib quidagilarni ko'rish mumkin.

- Mavjud tizim ba'zi hollarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) to'liq mos kelmaydi, bu esa banklarning xalqaro miqyosda hisoboti shaffofligi va solishtiriluvchanligiga putur yetkazadi. Xalqaro investorlar uchun moliyaviy hisobotlarning milliy standartlar asosida tayyorlanishi tushunish qiyin bo'lishi mumkin.
- Amortizatsiya hisoblash usullari ko'pincha bir xil va moslashuvchan bo'limganligi sababli, asosiy vositalarning eskirishi yoki foydalanish muddatiga mos kelmaydigan amortizatsiya stavkalari qo'llanilishi mumkin. Bu vositalarning eskirishi va moliyaviy hisob-kitoblarni haqqoniy aks ettirmasligiga olib keladi.
- Asosiy vositalarning bozor qiymati va eskirish darajasining muntazam qayta baholanmasligi natijasida ularning haqiqiy holati moliyaviy

hisob-kitoblarda to'g'ri aks ettirilmasligi mumkin. Bu esa bankning moliyaviy holatiga nisbatan noto'g'ri tasavvur hosil qilishi mumkin.

➤ Ko'p hollarda hisob tizimi texnologik jihatdan yetarlicha rivojlanmagan bo'lishi mumkin, bu esa asosiy vositalar haqidagi ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan holda boshqarishni murakkablashtiradi va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarga olib keladi.

➤ Ba'zi banklarda asosiy vositalar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq va o'z vaqtida yangilanmasligi, ma'lumotlar oqimining notekisligi sababli aktivlarning holati to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lish qiyinlashadi.

Aksiyadorlik tijorat banklarida asosiy vositalar hisobini takomillashtirish zarurati nafaqat milliy me'yoriy talablarga mos kelish, balki xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida samarali boshqaruv va hisobot tizimini yaratish uchun ham muhim hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida asosiy vositalar hisobini yuritishning bir qancha muhim afzallikkleri mavjud bo'lib, ular aksiyadorlik tijorat banklari uchun moliyaviy shaffoflikni oshirish, xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyalashish va investorlar ishonchini orttirishga katta hissa qo'shamdi. Quyidagi jadvalda afzallikkarning asosiylarini keltirib o'taman.

1-jadval

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida asosiy vositalar hisobini yuritishning afzallikkleri ketma-ketligi¹.

| 1 | Xalqaro solishtiriluvchanlik | MHXS asosida asosiy vositalar hisobini yuritish, xalqaro standartlarga mos keladigan yondashuvni joriy etishni talab qiladi. Bu esa banklar moliyaviy hisobotlarini dunyoning boshqa mamlakatlaridagi banklar bilan solishtirish imkonini beradi. Xalqaro investorlarga va manfaatdor tomonlarga moliyaviy ma'lumotlarni tushunish va taqqoslash osonlashadi, bu esa investorlarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi. |
|---|------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

¹ Muallif ishlanmasi.

| | | |
|---|----------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 2 | Ishonchlilik va shaffoflik | MHXS asosida tayyorlangan hisobotlar moliyaviy ma'lumotlarning aniq va shaffof bo'lishini ta'minlaydi. Asosiy vositalar to'g'risidagi ma'lumotlarning haqqoniyligi va eskirish, qayta baholash kabi jihatlarning aniq aks ettirilishi, moliyaviy ko'rsatkichlarning ishonchliligini oshiradi. Shu orqali bankning umumiyligi moliyaviy holati aniqroq ko'rindi. |
| 3 | Asosiy vositalarning qayta baholanishi | MHXS asosida asosiy vositalar hisobini yuritish banklarga ularning bozor qiymatini muntazam ravishda qayta baholash imkonini beradi. Bu esa asosiy vositalar qiymatining pasayishi yoki oshishi moliyaviy hisobotlarga o'z vaqtida kiritilishini ta'minlaydi. Qayta baholash orqali vositalarning real qiymatini aks ettirish investorlarga va moliyaviy tahlilchilarga aktivlarning bozor sharoitlariga mos ravishda baholanganini ko'rsatadi. |
| 4 | Amortizatsiya usullari moslashuvchanligi | MHXS asosida banklar turli xil amortizatsiya usullarini qo'llash imkoniyatiga ega. Bu asosiy vositalarning ishslash muddati, ularning foydalanish intensivligi va boshqa omillarga mos ravishda amortizatsiyani hisoblash imkonini beradi. Amortizatsiya usullarining moslashuvchanligi banklarning moliyaviy holatini to'g'ri aks ettirishda muhim rol o'yndaydi. |
| 5 | Risklarni boshqarish moliyaviy barqarorlik | MHXS bo'yicha asosiy vositalar hisobi aktivlarning qiymatini aniq baholash va eskirishni to'g'ri aks ettirishni talab qiladi. Bu esa banklarning moliyaviy holatini to'g'ri baholashga va ular yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni oldindan aniqlashga yordam beradi. Banklarning moliyaviy barqarorligi yaxshilanishi natijasida, ularning xalqaro moliya bozorlarida kredit olish imkoniyatlari kengayadi. |
| 6 | Investorlar va manfaatdor tomonlar uchun ochiqlik | Xalqaro standartlarga mos keladigan hisobotlar investorlar va manfaatdor tomonlarga batafsil va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etadi. Shu tariqa, ular bankning moliyaviy barqarorligi va aktivlarining holati to'g'risida aniqroq tasavvurga ega bo'ladilar. Bu esa bankning investitsion jozibadorligini oshiradi. |
| 7 | Davlat nazorati va regulyatsiyaga moslashuvchanlik | Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari nafaqat xalqaro miqyosda, balki mahalliy davlat nazorati va regulyatorlari tomonidan ham keng qabul qilingan. MHXS asosida hisob yurituvchi banklar moliyaviy nazorat organlariga nisbatan shaffoflikni ta'minlab, tekshiruv va audit jarayonlarini yengillashtiradi. |

| | | |
|---|-----------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 8 | Bankning reputatsiyasi va xalqaro moliya bozori ishtiroki | MHXS asosida hisob yurituvchi banklar xalqaro miqyosda yuqori obro'ga ega bo'lib, xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatini oshiradilar. Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarga mos kelgani uchun, xorijiy investorlar va kreditorlar bunday banklar bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'ladi. |
| 9 | Moliya menejmentini yaxshilash | MHXS asosida asosiy vositalarni boshqarish bankning moliyaviy boshqaruvi tizimlarini samarali qilishga yordam beradi. Bu esa resurslardan yanada samarali foydalanish, asosiy vositalarning eskirishini kuzatish va ularning ishlash muddatini optimallashtirish imkonini beradi. |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinish turibdiki MHXS asosida asosiy vositalar hisobini yuritish aksiyadorlik tijorat banklariga xalqaro standartlarga moslashish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligini oshirish, hamda xalqaro investorlarni jalg qilishda yordam beradi. Bu yondashuv banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va raqobatbardoshligini oshirishga katta hissa qo'shadi.

Moliyaviy hisob-kitoblarning ishonchliligini oshirish va moliyaviy ko'rsatkichlarning haqqoniyligini ta'minlash aksiyadorlik tijorat banklarining muvaffaqiyati uchun muhim hisoblanadi. Ishonchli va haqqoniy hisobotlar bankning ichki va tashqi foydalanuvchilari, shu jumladan, investorlar, moliya tahlilchilari, nazorat organlari va kredit beruvchilar uchun to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu maqsadga erishish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy usullar keltirilgan.

❖ Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash bankning moliyaviy ko'rsatkichlari xalqaro miqyosda tan olinadigan usullar bilan hisob-kitob qilinishini ta'minlaydi. Bu usul moliyaviy ma'lumotlarning solishtiriluvchanligini va ishonchliligini oshiradi.

❖ Aktivlar qiymatini aniq baholash va amortizatsiyani xalqaro standartlarga mos ravishda hisoblash hisob-kitoblarning ishonchliligini oshirishga yordam beradi.

❖ Moliyaviy hisobotlar ustidan muntazam ichki auditlar o'tkazish, moliyaviy ma'lumotlarning to'g'riliği va haqqoniyligini nazorat qilishga yordam

beradi. Ichki audit xatoliklar va noqonuniy harakatlarning oldini olish uchun muhimdir.

- ❖ Bankning barcha moliyaviy jarayonlari bo'yicha ichki nazorat tizimlarini joriy etish, shu jumladan, buxgalteriya yozuvlarini muntazam tekshirish va tasdiqlash, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini oshiradi.
- ❖ Mustaqil auditorlik kompaniyalari tomonidan o'tkaziladigan tashqi audit bankning moliyaviy ko'rsatkichlarining ishonchlilagini tasdiqlaydi va hisobotlarning xalqaro standartlarga mos kelishini ta'minlaydi.
- ❖ Bankning xalqaro standartlarga mos hisobotlarini ta'minlash uchun xalqaro auditorlar tomonidan tekshiruvdan o'tkazish ishonchlilik darajasini oshiradi.
- ❖ Bank ichidagi moliyaviy operatsiyalar va aktivlar hisobini avtomatlashtirilgan tizimlar orqali yuritish inson omili sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklarni kamaytiradi. Bu esa hisobotlarning aniq va haqqoniy bo'lishini ta'minlaydi.
- ❖ Enterprise resource planning (ERP) tizimlari bankning barcha bo'limlari o'rtasida ma'lumotlar almashinushi va qayd etish jarayonlarini optimallashtiradi. Bu usul moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish va aniq hisobotlar yaratishga yordam beradi.
- ❖ Bankning barcha moliyaviy operatsiyalari, aktivlar va majburiyatlar to'g'risida to'liq va haqqoniy ma'lumot berish, manfaatdor tomonlar uchun shaffof hisobotlarni taqdim etish moliyaviy ko'rsatkichlarga bo'lgan ishonchni oshiradi.
- ❖ Hisobotlarni muntazam va belgilangan muddatlarda taqdim etish bankning faoliyati to'g'risida yangilangan va haqqoniy ma'lumotlar taqdim etilishiga yordam beradi.
- ❖ Har xil amortizatsiya usullarini qo'llash, asosiy vositalar qiymatini aniq aks ettiradi va eskirish darajasiga mos ravishda amortizatsiya hisoblash imkonini beradi. Bu moliyaviy ko'rsatkichlarning real qiymatga yaqinroq bo'lishini ta'minlaydi.

- ❖ Asosiy vositalarning bozor qiymatini muntazam ravishda qayta baholash orqali ularning real qiymati hisobotlarda aks ettirilishi ta'minlanadi. Qayta baholash moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini oshiradi.
- ❖ Moliyaviy operatsiyalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni oldindan aniqlash va ularni boshqarish orqali bankning moliyaviy ko'satkichlarining stabilligini ta'minlash mumkin.
- ❖ Maxsus risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etish moliyaviy hisobotlarda aktivlar va majburiyatlarning haqqoniy aks ettirilishini ta'minlaydi.
- ❖ Hisob-kitoblarni bir xil usullar bilan standartlashtirish bankning barcha bo'limgari uchun yagona moliyaviy hisobotlarni taqdim etish imkonini beradi. Bu shuningdek, audit va nazorat jarayonlarini soddallashtiradi.
- ❖ Bankning barcha moliyaviy ma'lumotlarini markazlashgan holda boshqarish moliyaviy hisoblarning to'g'rilingini va ular orasidagi moslikni ta'minlaydi.
- ❖ Moliyaviy hisob-kitob ma'lumotlarini xavfsiz saqlash va himoyalangan texnologiyalardan foydalanish orqali ma'lumotlar yo'qolishi yoki ularning o'g'irlanishi oldini olish mumkin. Bu esa hisobotlarning to'liq va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.
- ❖ Ma'lumotlarni zaxiralash va saqlash tizimlarini tashkil qilish orqali moliyaviy ma'lumotlarning yo'qolishi yoki o'zgartirilishi xavfini minimallashtirish.
- ❖ Bankning moliyaviy bo'limi xodimlarining malakasini oshirish va ularni zamonaviy xalqaro buxgalteriya standartlari bo'yicha o'qitish hisob-kitoblarning ishonchlilagini oshirishga yordam beradi.
- ❖ Xodimlar uchun muntazam seminarlar va treninglar tashkil qilish orqali moliyaviy hisobotlar va audit amaliyotlarini tushunish darajasi oshiriladi.
- ❖ Moliyaviy ma'lumotlarning elektron hujjat aylanishi orqali boshqarilishi inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi va jarayonlarni tezlashtiradi. Elektron hujjatlar moliyaviy ma'lumotlarning haqqoniyligini va aniqligini ta'minlaydi.

❖ Moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish orqali xatoliklar va noto'g'ri ma'lumotlar tezkor aniqlanadi va tuzatiladi.

Bu usullar moliyaviy hisob-kitoblarning ishonchlilagini oshirish, ko'rsatkichlarning haqqoniyligini ta'minlash hamda bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun muhim qadamlar hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilganimizda aksiyadorlik tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarning ishonchlilagini oshirish va moliyaviy ko'rsatkichlarning haqqoniyligini ta'minlash bankning barqarorligi va xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlaydigan muhim amaliyot hisoblanadi. Banklarning moliyaviy operatsiyalari to'g'risida haqqoniy va shaffof ma'lumotlar taqdim etishi investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonchli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida asosiy vositalar hisobini yuritish hisob-kitoblarning haqqoniyligi va ishonchlilagini oshiradi, aktivlarning real qiymatini aks ettirishga ko'maklashadi. Ichki va tashqi audit tizimlarining kuchaytirilishi, moliyaviy ma'lumotlarning to'g'riliqini nazorat qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. ERP tizimlari kabi avtomatlashtirilgan hisob tizimlarining joriy etilishi inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytiradi va jarayonlarning samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, moliyaviy risklarni boshqarish, amortizatsiya jarayonlarini takomillashtirish va aktivlarni qayta baholash orqali bankning moliyaviy ko'rsatkichlarini to'liq va haqqoniy aks ettirish imkoniyatlari oshadi. Shaffoflikni oshirish, barcha moliyaviy jarayonlar to'g'risida to'liq va muntazam ma'lumot taqdim etish orqali, xalqaro moliyaviy bozorlar bilan ishonchli munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, hisob-kitoblar ishonchliligi va moliyaviy ko'rsatkichlarning haqqoniyligini ta'minlash uchun avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish, xalqaro standartlarga mos keluvchi audit va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, kadrlar malakasini oshirish kabi choralar bank faoliyatini yanada samarali va ishonchli qilishga xizmat qiladi.

ISSN:3060-4567 Modern education and development
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank buxgalteriya hisobining hisob varaqlar rejasi.
2. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining buxgalteriya hisobining hisob varaqlar rejasi.
3. O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisob varaqlari haqidagi 1- sonli yo'riqnomalar. 2020 y. 6 oktyabr.
4. O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risidagi 61-sonli yo'riqnomalar. 2018y. 5 sentyabr.
5. Abdullaeva Sh.Z, Navro'zova K.N. «Banklarda buxgalteriya hisobi asoslari» O'quv qo'llanma T. 2020 y.
6. Xolmuradovich X. B. et al. Importance of banking system in uzbekistan //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 218-22
7. BHXS 16 “Asosiy vositalar”
8. 5-son BHMS “Asosiy vositalar”
9. Shirinov U.A., Amonov A.A. Asosiy vositalar hisobini 16-son BHXS «asosiy vositalar» asosida tashkil etish. "Экономика и социум" №6(109)-2 2023 www.iupr.ru
10. Уразов К.Б. Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 2-нашр.- Т.: «Фан ва технология», 2019. – 540 б.
11. Kunduzova, K. I., Qudbiyev, N. T., & Asatullayeva, N. Y. Q. (2022). Iqtisodiyotning modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar hisobini takomilashtirish masalalari. Scientific progress, 3(3), 837-846.
12. Ibrohim, S. (2023, January). Asosiy vositalar"(bhxs 16) standartni amaliyatga joriy etish masalalari. In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 2, No. 1, pp. 204-207).